

## **CHAYNOV SAMARADORLIGINI ANIQLASHNIG ZAMONAVIY USULLARI**

### **TAXLILI**

**Xabilov B. N.**

*Fakultet ortopedik stomatologiya kafedrasи dotsenti Toshkent Davlat Stomatologiya instituti, UzR.*

**Po'latov X. T**

*Andijon davlat tibbiyat instituti ortopedik stomatologiya va ortodontiya kafedrasи assisenti, UzR*

**Аннотация:** Hozirgi vaqtida bemorlarning stomatologik xizmatga ya'ni ortopedik konstruksiyani to'g'ri tanlashga bo'lgan talablari oshib bormoqda. Noto'g'ri tanlangan ortopedik kontruksiya bemorning chakka pastki jag' bo'g'imining disfunksiyasi va estetik jihatidan tashqi ko'rinishini buzulishiga olib keladi. Ba'zi bemorlar ham o'z vaqtida tishlariga stomatologik yordam ko'rsatmaganligi tufayli ularda tishlar o'z vaqtidan oldin yoqotilishiga sabab bo'lab u chaynov samaradorligini buzulishiga olib keladi.

**Kalit so`zlar:** chaaynov samaradorligi, Rubinov, Gelman.

Chaynov:ovqat hazm qilishning birinchi bosqichi sifatida oziq luqmasini tayyorlash jarayonidir. Chaynash harakatlarini maqsadi ozuqani kichik bo'laklarga bo'lib,tupik bilan namlangan oziq luqmasini okklyuzial tuzilmalarning bor kuchlari bn maydalash hisoblanadi.Chaynash xususiyati oziq-ovqatning konsistensiyasi,zichligi va hajmiga bog'liq bo'ladi.

Chaynov samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq:  
tishlar va tishlarning holati, okklyuziv aloqa yuzalarining maydoni, tishlash holati, karies va uning asoratlari bilan tishlarning shikastlanish darajasi, chaynash mushaklarining holati, yoshi va jinsi.

Chaynov samaradorligini aniqlashning bir qancha usullari mavjud bular: Dinamik o'lchov (C.E.Gelman,I.C.Rubinov,Naumovich.Y.A.), Statik(Agapov), Nisbiy (NaumovichC.A,Nishanova B.J) Shu bilan birgalikda Rentez tomonidan o'zgartirilgan Braun tadqiqotlariga asoslangan tishlarning maksimal ixtiyoriy yopilishni o'lchash usuli.Maxsus ishlab chiqilgan tizim bosimni sezadigan sensorli elementga ulangan diametri 7-10 mm bo'lgan kauchik naychadaniborat.Tizim ma'lumotlarni qayta ishlash bilan jihozlangan kompyuterga chiqishga ega.Tkshiruv paytida trubka deformatsiyalanadi va yuqori va pastki jag'larning tishlari shaklini oladi va shu bilan okklyuzion kuchning yanada bir xil taqsimlanishi va tishlar uchun ma'lum darajadagi xavfsizlikni ta'minlaydi.

DENTAL PRESCALE tizimi yordamida okklyuzion bosimning kattaligini va tishlarning okklyuziv aloqa yuzalarinin maydonini o'lchash.Bu sistema 0,1mm qalinlikdagi bosimga sezgir qog'oz va ma'lumotni tahlil qiluvchi kompyuterdan iborat.Qog'oz tishlar orasiga qo'yiladi,shundan so'ng bemor2-3 soniya davomida maksimal kuch bilan bosiladi.Ma'lumotlar maxsus kompyuter dastur yordamida taxlil qilinadi.

**Xulosa.** Kompyuter dasturi yordamida chaynov samaradorligini islab chiqilgan usuli okklyuzion holatini tez,oson va aniq baholash imkonini berdi. Ushbu ishlar doirasida olib borilgan tadqiqotlar ichida kompyuterda baholashning ishlab chiqilgan usuli natijalarining ishonchlilagini va ushbu usuldan foydalanganda bemorlarni ortopedik davolash sifatini yaxshilanishi tasdiqlanga.